



**NOTO'LIQ OILA FARZANDLARINING ONA SHAXSI TA'SIRIDA  
IJTIMOIY TASAVVURLARIDAGI O'ZIGA XOSLIKNI O'RGANISH  
NATIJALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11364785>

**Yunusova Go'zal Sultonovna**

*Farg'ona davlat universiteti dotsent,*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada O'zbekiston sharoitidagi noto'liq oilalar farzandlarining ona shaxsi ta'sirida ijtimoiy tasvvurlaridagi o'ziga xoslikni o'rganish maqsadida o'smir yigit-qizlarda o'tkazilgan "O'n yildan keying hayotim" mavzusidagi erkin insho yozdirish orqali olingan natijalar berilgan bo'lib, unda o'smir yoshli yigit va qizlarning ijtimoiy tasavvurlaridagi jinsiy farqlar o'rganilgan hamda xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar**

noto'liq oila, o'smirlar, o'g'il bolalar, qiz bolalar, ijtimoiy tasavvurlar, jinsiy tafovvut, farzand, tadqiqot, insho, kontent-analiz.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье получено написание свободного эссе на тему «Моя жизнь через десять лет», проведенного среди мальчиков и девочек-подростков с целью изучения своеобразия социальных образов детей из неблагополучных семей под влиянием личности матери. в условиях Узбекистана были приведены результаты, в ходе которых были изучены гендерные различия в социальных представлениях мальчиков и девочек-подростков, а также разработаны выводы и рекомендации.

**Ключевые слова**

неблагополучная семья, подростки, мальчики, девочки, социальные представления, гендерные различия, ребенок, исследование, эссе, контент-анализ.

**ABSTRACT**

In this article, it was obtained by writing a free essay on the topic "My life after ten years" conducted among teenage boys and girls in order to study the uniqueness of the social images of children from dysfunctional families under the influence of the mother's personality in the conditions of Uzbekistan. results were



given, in which gender differences in the social perceptions of adolescent boys and girls were studied, and conclusions and recommendations were developed.

### Key words

dysfunctional family, teenagers, boys, girls, social perceptions, gender difference, child, research, essay, content analysis.

Ma'lumki, shaxs kundalik hayotda u yoki bu ijtimoiy xulq namunalarini o'z xatti-harakatida namoyon qilar ekan, u o'z borlig'i, hoziri va ertasini muayyan mo'ljallar doirasida tasavvur qiladi. Hayotiy mo'ljallar uning ayni paytda amalga oshirayotgan ishlariiga ma'lum ma'noda bog'liq bo'ladi va shu bilan birgalikda kelgusi ishlari uchun ham tamal toshi rolini o'ynaydi. Noto'liq oila farzandlarining istiqbol to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarini o'rganish uchun biz ular o'rtasida "O'n yildan keyingi hayotim..." mavzusida erkin insho yozib berishlarini so'radik va ularning matnini kontent-analiz qildik.

Tadqiqotning ushbu bosqichida ishtirok etgan barcha tanlov qatnashchilarining yozgan insholarini tahlil qilishning iloji bo'lindi, chunki materiallarning bir qismini tashlashga majbur bo'ldik. Oldilariga qo'yilgan vazifani to'la va nisbatan mazmunan boy qilib yozib bergen o'smirlik yoshidagi yigit va qizlarning insholari matnidagi eng ko'p marta qaytarilgan jumlalar, so'zlar va tayanch iboralarni kontent-analiz talablariga ko'ra saralab, ajratib oldik va umumlashtirib, xulosalar chiqardik.

Albatta, o'smirlik yoshidagi bolalarning oldiga qo'yilgan vazifa oson emas edi. Chunki ular ayni paytdagi holatida turib, bundan 10 yil keyingi holatini tasavvur qilishi va uni qog'ozga tushirib berishi lozim edi. Shunga qaramay, o'smirlik maksimalizmi va ayni shu davrning kattalikka, ulg'ayishga yo'nalganligini inobatga olgan holda biz yoshlari bilan ishladi.

Shunday qilib, insho matnlarini saralash yakuniga ko'ra, kontent-analiz qilingan matnlarning jami soni 195 tani tashkil qildi. Ularning taqsimoti quyidagi jadvalda keltirildi.

#### *Jadval.1.*

**Insho matnlari kontent-tahlil qilingan o'smirlik yoshidagi respondentlar taqsimoti (absolyut qiymatda)**

	Noto'liq oila	Jami
<b>Qizlar</b>	<b>48</b>	<b>48</b>
<b>O'g'il bolalar</b>	<b>45</b>	<b>45</b>
<b>Jami</b>	<b>93</b>	<b>93</b>



Sifatsiz, deb olib tashlangan keyin qolgan qayta ishlash uchun yaroqli deb topilgan insholarning miqdoriga e'tibor berish orqali ham respondentlarning o'ziga xos ayrim xususiyatlari to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Endi matnlarning sifat ko'rsatkichlariga e'tibor beramiz:

Biz birinchi navbatda noto'liq oila vakillarini insholarini sifat ko'rsatkichlarini taxlil qilishni lozim deb topdik.

Shunisi harakterlik, kontent-analizda barcha jihatlar albatta inobatga olinadi, masalan, matnning yozilish sifati, uning hajmi, fikrlar tiniqligi, misralar va abzaslar soni va hakozo. Biz ham ana shu jihatlarni inobatga oldik va o'smir yoshli bolalarning har bir inshosini vizual tashqaridan o'rganish bilan bir qatorda (biz o'zimiz har bir respondentga bir varaq oq qog'oz berib, shunga o'z fikrlarini bayon etishni so'ragan edik, shuning uchun necha betdan yozganligidan ko'ra, inshodagi abzaslar va so'ngra tayanch fikrlarni tahlil qildik) uning mazmunidan avval satrlar va abzaslarini hisoblab chiqdik. Quyida noto'liq oila vakillarining dastlabki kontent-analiz natijalarini keltirdik.

### *Jadval-2.*

**"O'n yildan keyingi hayotim" mavzusida yozilgan erkin inshoning tashqi tavsiflarini noto'liq oila yigit qizlari misolida o'rganish natijalari**

Tahlil mezoni	Noto'liq oila (N= 93) Abs / o'rtacha		Jami o'rt. (N= 93)
	Qizlar (N= 48)	Yigitlar (N= 45)	
Satrlar soni	28,2	14,4	21,3
Abzaslar soni	225/4,7	142/3,2	3,95

Matnlarning tashqi sifat tavsiflarini miqdoran tahlil qilish ham ayrim mulohazalarni keltirib chiqaradi:

1) so'zga boylik, o'z fikrini muhtasar bayon eta olish qobiliyati noto'liq oila vakillari bo'lган о'г'il bolalarda fikrini lo'ndaroq bayon etish xos;

2) abzaslar tahlili qizlar fikrining to'laroq va boyroq ekanligini ko'rsatdi, chunki ularda abzaslarning o'rtacha miqdori umumiy tanlovdagilarnikidan yuqoriqoq va 4,7. Bu qizlarning bu boradagi ijtimoiy tasavvurlari kengroq ekanligidan darak beradi.

Endi bevosita matnlarning sifatiy tahliliga o'tamiz. Chunki shu yo'l bilangina o'smirlarning keljak va istiqbol tasavvurlari haqida xulosa chiqarish mumkin.



Eksperimentimiz shartiga ko'ra, biz o'smirlarga o'n yildan keyingi kelajagini, istiqbolda jamiyatda va oilada qanday mavqeda bo'lishini qanday tasavvur qilishini so'radik va ularga bu vazifani ado etish uchun roppa-rosa bir soat vaqt va bir varaq oq qog'oz berdik. Natijalarni har bir sifatli yozilgan insholar misolida kontent-analiz qilish qoidasiga rioya qilgan holda qayta ishladik. Ya'ni, bunda biz sifat jihatdan yozilgan matndagi tayanch so'zlar, iboralar va qaytarilavergan so'zlarni ma'lum jadvalda miqdor jihatdan sanab chiqildi va maxsus formula yordamida qaytarilish koeffitsienti hisoblab chiqildi:

$$Ch_{(abs)} = \frac{K(A)}{K(ym)} \times 100\%,$$

bu yerda:

$Ch_{(abs)}$ - tushunchaning (sifat kategoriyasining) nisbiy qaytarilishi qiymati;

$K(A)$  - konkret tushunchaning necha marta qaytarilganligining qiymati;

$K(um)$ - o'sha to'plamda qayd etilgan jami kategoriyalar soni.

Shunday qilib, har bir matn analiz qilinadi, masalan, «oila» degan tushuncha necha marta qaytarilganligi avval konkret guruh (masalan, noto'liq oiladagi qizlar )ning jami insholari matnida sanab chiqiladi, so'ngra, konkret bir bola inshosida va shu guruhgaga kiruvchi (masalan, noto'liq oiladagi qizlar) shaxslar ishida sanab chiqilgach,  $Ch_{(abs)}$  ning qiymati aniqlanadi. Masalan, agar "oila" tushunchasi misolida bu holatni biz shunday o'rgandik: noto'liq oila vakilasi bo'lgan Sh. ismli qizning inshosida "oila" tushunchasi 3 marotaba qayd etilgan; jami shu inshoda kontent-analiz kategoriyalari sifatida ajratib olingan tushunchalar soni 10 ta bo'lsa, bu qizdag'i koeffitsient 30,0 ga teng bo'ladi. Agar biz shu guruh, ya'ni, noto'liq oiladagi qizlar guruhida bu ishni umumlashtirsak, jami kategoriyalar soni 600 ta bo'lsa, "oila" tushunchasi, ya'ni, podkategoriyasining qaytarilish miqdori 155 marotaba bo'lsa, unda ushbu guruhda shu tushunchaning kontent-analiz koeffitsienti 25,8 ni tashkil etadi. Shu tariqa barcha tanlov qatnashchilarining insholari kategoriyalar va podkategoriyalar nisbati nuqtai nazaridan tahlil qilindi va guruhlararo umumlashtirildi.

Biz tahlil jarayonida ahmiyatliroq kategoriyalarni ajratib olishga qaror qildik. Buning uchun eng ko'p marta qaytarilganlik nuqtai nazaridan tushunchalar yoki jumlalarning reyting qatorini shakllantirdik va quyidagi qatorni hosil qildik va ularning noto'liq oila vakillarining har ikkala guruhida qaytarilish martasini miqdoran hisoblab chiqdik (jadval).

Jadval -3.

**Insho matnlarida eng ko'p marta qaytarilgan fikrlarning kontent-analiz kategoriyalari sifatida noto'liq oila yigit qizlarining reytingi va ularning guruhlardagi taqsimoti (jami insholar soni 93 ta)**



Tahlil kategoriyalar	qilingan	Jami Kum n=93	Noto'liq oila	
			Qizlar n=48	Yigitlar n=45
1. Oila (oilam)	93	48	45	
2. farzandlar	92	48	44	
3. ota-onা	78	40	38	
4. kasb-hunar, kasb ustasi	68	23	45	
5. jamiyat a'zosi	61	21	40	
6. onam	57	42	15	
7. obro', mavqe, martaba	54	30	24	
8. do'stlarim	54	15	39	
9. tadbirkor shaxs	53	25	28	
10. yaqinlarim	44	25	19	
11. rahbar, lider	40	23	17	
12. salomatlik	40	25	15	
13. uzoq va mazmunli umr	34	18	16	
14. oila tayanchi bo'lish	33	15	18	
15. ma'naviyatli inson	28	18	10	
16. ibratli, adolatli inson	28	11	17	
17. shaxsiy uy, xususiy mulkdor	27	9	18	
18. ziyoli inson, pedagog	21	18	3	
19. farovon, to'kin hayot	20	15	5	
20. sadoqatli yor (tur mush o'rtoq)	17	7	10	
Jami absolut raqamlarda	882	476	406	



Insho matnlarida biz uchun ahamiyat kasb etgan, ko'p marta barcha insholarda qaytarilgan kategoriyalarning absolyut raqamlarda qaytarilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, tanlovda qatnashgan yoshlarning barchasi uchun "oila" – bu qadriyat va ular o'z istiqbollarini ushbu tushuncha atrofidagi qadriyatlar bilan uyg'un tarzda tasavvur etadi. Masalan, deyarli barcha yozma ishlar "O'n yildan so'ng mening o'z oilam, farzandlarim bo'ladi..." degan jumlalar bilan boshlaganlar. Bu o'smirlarning hayotiy ustakovkalarida oila omilining ham rolini, ham ahamiyatini ko'rsatadi.

*Jadval 4.*

**Noto'liq oila yigit va qizlarining insho matnlarida eng ko'p marta qaytarilgan fikrlarni kontent-analiz koeffitsientlari** (jami insholar soni 93 ta)

Tahlil kategoriylar	qilingan i	Jam Ku m n=9 3	Noto'liq oila	
			Qizlar n=48	Yigitlar n=45
1. Oila (oilam)		10.6	10.1	11.1
2. farzandlar		10.4	10.1	10.8
3. kasb-hunar, kasb ustasi		7.95	4.8	11.1
4. ota-onा		8.88	8.4	9.36
5. jamiyat a'zosi		7.1	4.4	9.85
6. onam		6.25	8.8	3.7
7. obro', mavqe, martabalilik		6.1	6.3	5.9
8. do'stlarim		6.3	3.15	9.6
9. tadbirkor shaxs		6.0	5.25	6.9
10. yaqinlarim		4.9	5.25	4.7
11. rahbar, lider		4.75	4.8	4.2
12. salomatlik		4.4	5.25	3.7
13. uzoq va mazmunli umr		3.85	3.8	3.9
14. oila tayanchi bo'lish		3.7	3.15	4.4
15. ibratli, adolatli		3.2	2.31	4.2



inson				
16. ma'naviyatli inson	3.15	3.8	2.5	
17. shaxsiy uy, xususiy mulkdor	2.7	1.9	4.4	
18. ziyoli inson, pedagog	2.25	3.8	0.7	
19. farovon hayot, to'kin hayot	2.17	3.15	1.2	
20. sadoqatli yor (turmush o'rtoq)	2	1.5	2.5	
Jami	882	476	406	
	100.	25.8	22.04	
	0			

Dastlabki ahamiyatli “beshlikka” kirgan qadriyatlar orasida “oila” kategoriyasidan so'ngi o'rnlarda mos ravishda “farzandlar” (92; 48, 44 marotaba), “ota-onal” (78; 40, 38 marotaba), va “kasb ustasi” (68 jami va mos ravishda 23, 45 marta) kategoriyalari qayd Bu ham anchagina ijobiy ustanovkalardan, chunki keljakni mehnatsiz, kasbsiz tasavvur qilish mumkin emasligini yoshlar hozirdanoq yaxshi anglaydilar. Bunday iboralar noto'liq oilada yigitlari nihoyatda aniq ifodalangan, oxirgi guruhda bu omil absolyut barcha o'g'il bolalar javoblarida aniq qayd etilgan. Demak, ota va onasi bor bolalarga nisbatan otasiz o'sayotgan bolada keljakda yaxshi kasb egasi bo'lgan tarzda hayot kechirishini tasavvur qilishi yaqqolroq namoyon bo'ladi. “Jamiyat a'zosi” iborasi qiz bolalarda 21, o'g'il bolalarda esa 40 marotaba uchraydi, raqamlardan ko'rinish turibdiki, o'g'il bolalar ko'p marotaba ishlatgan.

Biz o'smirlarning o'z hayoti va oilasini keljakda ayni vaqtida ota-onasi (yoki faqat onasi) bilan tasavvur qilishi va shu orqali o'zini ota-onalikka tayyorlashi qanday kechishiga e'tibor qaratdik. Insholar matnida “ota-onal” kategoriyasi kiruvchi iboralar ko'p uchraydi. Lekin “ota” kategoriyasi alohida juda kam uchradi. Noto'liq oila vakillarining istiqbol to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlaridagi o'ziga xosliklar yana quyidagilarda namoyon bo'ldi:

a) “onam” tushunchasi bilan so'z va iboralar ko'proq uchradi, ayniqsa, noto'liq oila vakilalari bo'lgan qizlarda (mos ravishda 42 va 15) ya'ni, noto'liq oiladagi ona figurasi, timsoli bola uchun ahamiyatli, shu bois u o'z fikrlarida bu tushunchaga bot-bot murojaat qiladi: “onamni sevaman”, “onamga suyanch bo'laman”, “onamday yolg'iz bo'lmayman” kabi onasining ijtimoiy maqomidan



kelib chiqib, o'z istiqbolini tasavvur qilish ko'proq noto'liq oila vakilalari uchun ko'proq xos ekanligi ma'lum bo'ldi;

b) istiqbolda jamiyatga munosib o'rinn egallash va shu orqali o'z "Men"ini namoyon etish istagi yigitlarda qizlarga nisbatan anchagina sezilarlidir, chunki bu tushuncha atrofidagi fikrlar yigitlarda 2 barobar ortiq marta qaytarilgan (mos ravishda qizlarda 4,4 va 9,85 marotaba). Ayniqsa, noto'liq oilada tarbiyalangan o'g'il bolalarda kelajakda jamiyat a'zosi sifatida o'zini ko'rsatish istagi yuqoriligi diqqatga sazovordir. Bu ham yolg'iz onaga suyanch va tayanch bo'lish istagi, uning armonlarini ro'yobga chiqarishga moyillikning kuchliligi bilan izohlansa kerak;

v) jamiyatda muayyan obro', martabaga, mavqega ega bo'lish istagining namoyon bo'lishi ikkala guruh vakillarida deyarli bir xil namoyon bo'lgan, chunki bu yerda koeffitsient mos ravishda 6,3 va 5,9. Ya'ni, eng yuqori koeffitsient noto'liq oila qizlarida;

g) "do'stlar", "yaqinlar"ga ega bo'lish istagi ko'proq yigitlarning javoblarida bor, ular o'z istiqbollarini do'stlar va yaqin kishilarisiz tasavvur qila olmaydilar, ayniqsa, bunday ustanovka noto'liq oila o'g'il bolalarida (9,6), qizlarga nisbatan kamroq (3,15). Chunki qizlar uchun "turmush o'rtoq", "sadoqatli yor"ga ega bo'lish istagi nisbatan kuchliroq ifodalangan;

d) ikkala guruh vakillari uchun kelajakda ma'lum rahbar lavozimlarni egallash, lider bo'lish xohishlari deyarli bir xil ifodalanish tendensiyasiga ega (4,8 va 4,2). Tanlovdagilarning har uchtasidan bittasi uchun bunday maqom kelajakda axamiyatli rol o'ynaydi;

e) istiqbolda ziyoli, o'qimishli (ayrimlarida aniq "pedagog", "ustoz" bo'lish) inson bo'lish istagi ko'proq qizlar javoblarida qayd etilganki, bu ham ularning ayollik tabiatiga bir tomonidan mos. Chunki noto'liq oiladagi qizlarning ko'pchiligi o'zini ana shunday tasavvur qilsa, (3,8 va 0,7), yigitlar uchun esa bu omil ahamiyatsiz;

j) kelajakni xususiy mulk egasi sifatida tasavvur qilish xislati ham yoshlarga xos, lekin bu borada o'g'il bolalar qizlarga nisbatan ancha faol va intiluvchan, ayniqsa, noto'liq oila farzandlari bo'lgan o'g'il bolalarda tadbirkor shaxs bo'lish, shaxsiy uyg'a ega bo'lish va xususiy mulkdor bo'lish istagi aniqroq gavdalangan (4,4 va 1,9). Qizlar bu borada ancha o'zlarini kamtarona tasavvur qiladilar.

z) kelajakda oilaning tayanchi bo'lish, uni qo'llab-quvvatlashga o'zini safarbar eta oladigan sifatida tasavur qilish qizlarda ham, yigitlarga ham nisbatan yaxshi bayon etilgan. Bu borada noto'liq oila qizlari nisbatan o'z kuchlariga ishonmaydilar 3,15, yigitlarniki mos ravishda 4,4. Bu ham ijobjiy psixologiya, deb e'tirof etilishi mumkin. Chunki katta tanlov ichida o'smir yoshida shu qadriyatga e'tibor berib, uni yozma ravishda bayon etish hammaning ham yodiga kelavermaydi.



i) nihoyat, biz yozma ishlarda deyarli kam uchragan, tipiklik xususiyatini ola olmagan ayrim qadriyatlarga e'tibor qaratdik. Bu - birinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek, "otam", "ibratli ota bo'laman" kabi kategoriyalarning kam uchraganidir. Bu balki otalik maqomining farzandlar nazaridan qolayotganligi, respondentlarning salkam yarmi noto'liq oila vakillari bo'lganliklaridandir. Bundan tashqari, ilgarigi qadriyatlar qatorida bиринчи reytingda bayon etilgan "salomatlik" qadriyati yozma bayonda nisbatan kam ahamiyatli sifatida namoyon bo'ldi, faqat noto'liq oila qizlari uchun bu tushuncha ahamiyatliroq (5,25), yigitlari uchun nisbatan ahamiyatsiz (3,7). Tadbirkorlikka nisbatan motivatsiya noto'liq oila qizlari uchun bu qadriyat ancha ahamiyatli, hattoki, yigitlar ustanovkasiga yaqindir (5,25; yigitlarda mos ravishda 6,9).

Demak, noto'liq oiladagi onaning faol hayotiy mavqeい, farzandlarini bekamu-ko'st boqishga nisbatan intilishlari unga hamdard bo'lган farzandlarda tadbirkor va uddaburonroq bo'lish istagini uyg'otar ekan. Qolaversa, bu toifa farzandlar davr talabi va unda tadbirkorlar uchun yaratilgan qulay sharoitlardan ancha bohabardirlar.

Umuman, kontent-analiz qilingan barcha kategoriyalar va kategoriyalarni to'ldiruvchi podkategoriyalarning umumiyligini qayd etilishiga e'tibor bersak (jadval) shu narsa ayon bo'ladiki, fikrlashlar, istiqbol to'g'risidagi tasavvurlarni qog'ozda bayon etishda noto'liq oila qizlari (25,8), noto'liq oila o'g'il bolalaridan (22,04) anchagina faol pozitsiyani namoyon etgan. Albatta, bu holat avvalo qizlarni filologik layoqatlari bilan izohlansa, ikkinchidan, hayotda biroz bo'lsa-da, ichki ruhiy stressni boshidan kechirgan insonning ko'proq pragmatik, realistik tafakkuridan dalolat beradi, biz bu o'rinda noto'liq oila o'g'illarini nazarda tutdik.

Biz yuqorida insholar matnini mazmunan tahlil qilish qizlarga nisbatan yigitlariga, ko'proq pragmatizm xos ekanligini ta'kidlagan edik. Darhaqiqat, jadvaldagi ayrim-alohida raqamlarga- koeffitsientlarga e'tibor bersak bunga amin bo'lishimiz mumkin. Masalan, jamiyatda aniq maqomga erishishga intilish, obro', martabaga loyiq bo'lish, do'stlarga ega bo'lish, hattoki, ularning qo'llab-quvvatlovi bilan rahbar, liderlik mavqeiga ham ega bo'lish, tadbirkor, xususiy mulk egasi, alohida uy-joyga ega bo'lib, uzoq va mazmunli umr kechirish, ibratli va adolatli shaxs bo'lish istagi yuqorida ta'kidlaganimiz noto'liq oilada tarbiyalangan o'g'il bolalarda noto'liq oila qizlariga nisbatan yaqqolroq namoyon bo'lган. Bu noto'liq oiladagi ona maqomi va uning ta'sir kuchi oqibatida bola shakllanadigan hayotiy mo'ljallar va istiqbol rejalarining mazmunida aks etishini isbotlaydi.

Yuqoridagi xulosa noto'liq oilaning ijobiliy ta'siri sifatida talqin etilmasligi kerak, chunki boshqa masalalarda, ayniqsa, bolaning ma'nnaviy-ruhiy olamidagi stresslar, depressiya holatlarining salbiy oqibatlarini cheklamaydi. Qolaversa, ko'pchilik bolalar ayni holatida ko'proq onani ayblashtga ham moyil bo'ladilar.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Moscovici S. Sociale representations/ Ed. By R.M/ Farr, .- Combridge,-1984.-412 p.
2. Емельянова Т.П. Концепция социальных представлений в современной французской социальной психологии / критический анализ/: Автореф.дисс...канд.психол.наук. - М., 1985.-18 с
3. Yadgarova G.T. Noto'liq oilalarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari // Psixol.f.n. ilmiy daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref.-T., 2004 - 24 b.
4. Sultanovna, Y. G. (2024). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CONFLICT FORMATION IN HUSBAND-WIFE RELATIONSHIPS. *JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY*, 7(1), 11-19.
5. Yunusova Go'zal Sultonovna Turdimatova Elnoza Erkinjon qizi. (2023). O'SMIRLARDA ASSOTSIAL XULQNI SHAKLLANTIRUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *International journal of education, social science & humanities. finland academic research science publishers*, 11(5), 1357-1367.
6. Yunusova Go'zal Sultonovna Isroilov Abrorjon Axatjon o'o'li. (2023). O'ZBEK OILALARIDANIZO VA AJRRIMLARNINGYZAGA KELISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI. *International journal of education, social science & humanities. finland academic research science publishers*, 11(5), 1348-1356.
7. Yunusova, G. (2023). THE INFLUENCE OF PARENT-CHILD RELATIONSHIP ON THE FORMATION OF CHILDREN'S BEHAVIOR. *Models and methods in modern science*, 2(11), 162-170.
8. Yunusova, G., & Meliqoziyeva, M. (2023). FACTORS CAUSING DEMONSTRATIVENESS AND AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENCE. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(18), 189-196.
9. Sultonovna, Y. G. Z. (2024). IJTIMOIY XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 2(25), 9-14.
10. Юнусова, Г. (2023). ЎСМИР ЁШЛИ БОЛАЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА МАЬНАВИЙ ЖИҲАТДАН ТАЙЁРЛАШДА ОНА ШАХСИНИНГ ТАЪСИРИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(5 Part 3), 69-75.
11. Sultonovna, Y. G. Z. (2024). IJTIMOIY XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 2(25), 9-14.



- 
12. Yunusova, G. (2023). THE INFLUENCE OF PARENT-CHILD RELATIONSHIP ON THE FORMATION OF CHILDREN'S BEHAVIOR. *Models and methods in modern science*, 2(11), 162-170.